Fattohjonov Bekzod Rasuljon o'g'li, Ro'zimov Sanjarbek Komilovich, Ravshanbekov JaxongirAlisher o'g'li, Muxitdinov Akmal Anvarovich	
AQSHNING ILG'OR TAJRIBASI ASOSIDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1058
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
IJTIMOY HIMOYA KATEGORIYASINING TRANSFORMATSON RIVOJLANISHI	1067
M.Sh.Raximova	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI.....	1072
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
IPAK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TEXNOLOGIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARI	1077
Mahmudov Umidjon Bahodir o'g'li , TurdialiyeV Umid Muxtaraliyevich, Sulaymonov Sharifjon Abdumanabovich	
QORAQALPOG'ISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1085
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусаинов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	1221
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdiyevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLIH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
ISSUES OF REDUCING THE SHADOW ECONOMY THROUGH THE USE OF DIGITAL PAYMENTS AND BLOCKCHAIN TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS.....	1336
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
BANKLARNING KOMPANIYALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIGA HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1338
M.T. Ibodullayeva	



BANKLARNING KOMPANIYALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIGA HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

M.T. Ibodullayeva

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish tizimini rivojlantirish, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur moliyalashtirish tizimida muhim o'rinni, shubhasiz, hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyoti egallaydi. Ayniqsa, hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida hisob-kitob qilish kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Maqolada O'zbekiston tijorat banklarining kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyoti tahlil qilingan va uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kompaniya, hujjatlashtirilgan akkreditiv, avans to'lovi, xedjirlash, bank kafolati, ochiq hisobraqam.

Аннотация. Развитие системы финансирования внешнеэкономической деятельности компаний является необходимым условием обеспечения финансовой устойчивости банков и повышения конкурентоспособности национальных производителей на международных рынках. В данной системе финансирования важное место, безусловно, занимает практика расчетно-кассового обслуживания. В частности, расчеты посредством документарных аккредитивов играют значительную роль в финансировании внешнеэкономической деятельности компаний.

В статье проанализирована практика расчетного обслуживания внешнеэкономической деятельности компаний коммерческими банками Узбекистана, а также разработаны научные предложения по её совершенствованию.

Ключевые слова: коммерческий банк, компания, документарный аккредитив, авансовый платеж, хеджирование, банковская гарантия, открытый счет.

Annotation. The development of a financing system for companies' foreign economic activity is a necessary condition for ensuring the financial stability of banks and enhancing the competitiveness of national producers in international markets. Within this system, settlement and payment services play a crucial role. In particular, settlements through documentary letters of credit serve as an important instrument in financing companies' foreign economic operations. The article analyzes the practices of commercial banks in Uzbekistan in providing settlement services for companies' foreign economic activities and proposes scientific recommendations for their improvement.

Keywords: commercial bank, company, documentary letter of credit, advance payment, hedging, bank guarantee, open account.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda mamlakat eksporti hajmini 30 mlrd AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida valyuta resurslarini boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy qilish valyuta siyosatini liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan [2].

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Gloriov va D. Mixaylovlarning xulosasiga ko'ra, eksport-import operatsiyalarini banklar tomonidan moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalani uchun quyidagi hisob-kitob



shakllari va to'lov usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- hujjatli inkasso;
- sof inkasso;
- avansli o'tkazma;
- stend-bay akkreditiv;
- chaqirib olinmaydigan akkreditiv;
- ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish [3].

Fikrimizcha, ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalash imkonini bermaydi. Chunki hisoblashishlarning ushbu turida jo'natiladigan tovarlar summasi oldindan eksportyorning bankida ochilgan ochiq hisobraqamga o'tkazib beriladi. Tovarlarning jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjatlar eksportyorning bankiga berilgandan so'ng eksport tushumi summasi ochiq hisobraqamdan eksportyorning joriy hisobraqamiga o'tkazib beriladi. Lekin eksportyorning banki ham, importyorning banki ham to'lov yuzasidan javobgar hisoblanmaydi.

Aytaylik, importyorning bankida siyosiy riskning chuqurlashishi natijasida tijorat banklarining xorijiy valyutadagi «Nostro» vakillik hisobraqamlaridan to'lovlarni amalga oshirish to'xtatildi. Buning natijasida eksportyor eksport tushumini ola olmaydi. Chunki importyor jo'natiladigan tovarlarning summasini eksportyorning bankida ochilgan ochiq hisobraqamga o'tkaza olmaydi. Demak, ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish eksportyorning siyosiy riskdan himoya qilish imkonini bermaydi.

J. Sinkining fikriga ko'ra, agar bank ma'lum sabablarga ko'ra balans ichida xedjirlashni amalga oshira olmasa, unda xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullardan, ya'ni valyutadagi hosilaviy instrumentlardan — fyuchers, forward, opsiyondan foydalanishi mumkin [4].

I. Rozinskiyning tadqiqoti ko'rsatadiki, hozirgi davrda xalqaro savdoning 80 foizdan ortiq qismi ochiq hisobraqamlar asosida moliyalashtirilmoqda [5].

Haqiqatan ham, ochiq hisobraqamlar asosida moliyalashtirish nisbatan arzon moliyalashtirish shakli hisoblanadi. Biroq ushbu moliyalashtirish usuli bir-birini uzoq vaqtdan buyon biladigan va bir-biriga ishonchi yuqori bo'lgan hamkorlar — eksportyorlar va importyorlar o'rtasida keng qo'llaniladi. Respublikamiz eksportyorlari uchun esa eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha to'lov summasini kafolatlangan tarzda olish imkonini beradigan moliyalashtirish shakllari va usullari zarur.

I. Leshukovning xulosasiga ko'ra, eksportni moliyalashtirishda hujjatlashtirilgan akkreditiv keng qo'llaniladi va u eksportyor uchun quyidagi afzalliklarga ega:

- eksportyor eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni kafolatlangan tarzda oladi;
- ochilgan akkreditivni birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlatib olish imkoniga ega bo'ladi;
- importyor mamlakatining valyuta qonunchiligiga bog'liq bo'lmagan tarzda yetkazilgan tovar uchun to'lovni oladi [6].

Haqiqatan ham, hujjatlashtirilgan akkreditiv eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni to'liq kafolatlash imkonini beradi. Buning ustiga, ochilgan akkreditivning birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlanishi siyosiy riskdan qochish imkonini beradi.

T. Bobakulovning xulosasiga ko'ra, iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi o'zaro to'lovsizlik muammosini chuqurlashtiradi, korxonalarining pul oqimini zaiflashtiradi hamda to'lov qobiliyatini rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi [7].

F. Axmedovning fikriga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida ta'minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditiv va hujjatli inkasso shaklidan keng foydalanishga imkon yaratayotgan jihatlardan, ya'ni akkreditivlarda to'lovning to'liq kafolatlanganligi va hujjatli inkassoda tovar hujjatlarining to'lov amalga oshirilgandan keyin berilishi tartiblarning O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilishi ularning tashqi savdoga xizmat ko'rsatish faoliyatining takomillashuviga imkon yaratadi [8].

TADQIQOTNING METODOLOGIYASI

Tadqiqotning obyekti bo'lib respublikaning yirik tijorat banklari — O'zmilliybank, Asakabank va Sanoatqurilishbank hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini banklar tomonidan kompaniyalarga hisob-kitob xizmati ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning axborot bazasini taniqli iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari hamda tadqiqot obyekti bo'lgan tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyoti mamlakat Markaziy bankining 2020-yil 13-apreldagi 3229-sonli «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni to'g'risida»gi yo'riqnomasi bilan tartibga solinadi. Ushbu yo'riqnomaga ko'ra 4 ta naqd pulsiz hisob-kitob shakli, ya'ni to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi va akkreditiv shaklida to'lovlarni

amalga oshirishga ruxsat etilgan [9].

Respublika tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyoti xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi. Shu sababli, tijorat banklari xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish bo'yicha talablarni xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va xalqaro konvensiyalar talablariga to'liq rioya qilgan holda shakllantiradi.



1-rasm. O'zMilliybank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar va mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha berilgan kafolatlar summasi, trln. so'm¹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadiki:

— O'zmilliybank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2020–2024-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan keskin kamaygan. Bu esa O'zmilliybankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

— O'zmilliybank tomonidan mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha berilgan kafolatlar summasi 2019–2021-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, berilgan kafolatlar summasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Bu esa O'zmilliybankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.



2-rasm. Asakabank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga trattalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar va muddatli trattalarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmidagi ulushi, foizda²

2-rasmdan ko'rinadiki:

— Asakabank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida juda yuqori salmoqni taqdim etuvchiga trattalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq

1 Rasm muallif tomonidan O'zMilliybankning moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2 Rasm muallif tomonidan Asakabankning moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida tuzilgan.



to'lanmagan akkreditivlar hamda muddatli trattelarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar egallaydi. Masalan, 2024-yilda mazkur akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 98,9 foizni tashkil etdi;

— Asakabank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga trattelarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2018–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan;

— Asakabank tomonidan ochilgan muddatli trattelarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2018–2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Tahlillar ko'rsatdiki, Sanoatqurilishbank tomonidan ochilgan mijozlarning import to'lovi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2018–2020-yillarda hamda 2022–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.



3-rasm. Sanoatqurilishbank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga trattelarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar va qoplangan akkreditivlarning jami hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmidagi ulushi, foizda³

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki:

— Sanoatqurilishbank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar taqdim etuvchiga trattelarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar hamda qoplangan akkreditivlardan iborat;

— Sanoatqurilishbank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga trattelarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2021–2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan;

— Sanoatqurilishbank tomonidan ochilgan qoplangan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2021–2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa Sanoatqurilishbankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

— ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish iqtisodiy va siyosiy risklardan himoyalash imkonini bermaydi. Chunki hisoblashishlarning ushbu turida jo'natiladigan tovarlar summasi oldindan eksportyorning bankida ochilgan ochiq hisobraqamga o'tkazib beriladi;

— agar bank ma'lum sabablarga ko'ra balans ichida xedjirlashni amalga oshira olmasa, unda xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullardan, ya'ni valyutadagi hosilaviy instrumentlardan — fyuchers, forward, opsiyondan foydalanishi mumkin;

— ochiq hisobraqamlar asosida moliyalashtirish nisbatan arzon moliyalashtirish shakli hisoblanadi. Biroq ushbu moliyalashtirish usuli bir-birini uzoq vaqtdan buyon biladigan va bir-biriga ishonchi yuqori bo'lgan hamkorlar — eksportyorlar va importyorlar o'rtasida keng qo'llaniladi;

— eksportni moliyalashtirishda qo'llaniladigan hujjatlashtirilgan akkreditivlar quyidagi afzalliklarga ega: eksportyor

3 ³ Расм муаллиф томонидан Саноатқурилишбанкнинг молиявий ҳисоботларининг маълумотлари асосида тузилган.

eksport qilingan tovarlar uchun to'lovni kafolatlangan tarzda oladi; ochilgan akkreditivni birinchi toifali xorijiy bank tomonidan tasdiqlatib olish imkoniga ega bo'ladi; importyor mamlakatining valyuta qonunchiligiga bog'liq bo'lmagan tarzda yetkazilgan tovar uchun to'lovni oladi;

— O'zmilliybank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2020–2024-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan keskin kamaygan. Bu esa O'zmilliybankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

— O'zmilliybank tomonidan mijozlarning to'lov majburiyatlari bo'yicha berilgan kafolatlar summasi 2019–2021-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, berilgan kafolatlar summasi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan;

— Asakabank tomonidan mijozlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning umumiy hajmida juda yuqori salmoqni taqdim etuvchiga tratalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar hamda muddatli tratalarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlar egallaydi. Masalan, 2024-yilda mazkur akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 98,9 foizni tashkil etdi;

— Asakabank tomonidan ochilgan taqdim etuvchiga tratalarni to'lagan holdagi import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2018–2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan;

— Asakabank tomonidan ochilgan muddatli tratalarga qarshi qo'yilgan import bilan bog'liq to'lanmagan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2018–2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan;

— Sanoatqurilishbank tomonidan ochilgan qoplangan akkreditivlarning jami akkreditivlardagi ulushi 2021–2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan va 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa Sanoatqurilishbankning xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kompaniyalarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga hisob-kitob xizmati ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish uchun: birinchidan, kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish tizimiga “ochiq hisobraqamlar bo'yicha hisoblashish” to'lov shartini joriy qilish kerak; ikkinchidan, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning turlaridan kompleks foydalanishni ta'minlash zarur; uchinchidan, banklarning orderli cheklari va sof inkassoda foydalanishni, ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda, hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish amaliyotiga joriy qilish lozim.

E'tirof etish joizki, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir tur boshqa turning o'rini bosa olmaydi. Masalan, to'lovni kechiktirishga asoslangan akkreditivda tratalarni taqdim etmasdan turib, benefisiar o'z bankidan ma'lum summadagi avansni olish imkoniga ega bo'ladi. Holbuki, hozirgi zamonaviy bank amaliyotida ochilayotgan akkreditivlarning ko'pchiligida tratalarni taqdim etish sharti mavjud. Hatto tratalarni taqdim etish sharti emitent bank tomonidan qo'yilmagan bo'lsa ham, Yevropa bank amaliyotida xabar beruvchi bank va tasdiqlovchi bank tratalarni taqdim etishni talab qilmoqda.

Shunisi ahamiyatliki, “qizil hoshiyali” akkreditiv (Red clause) eksportyorning qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi. Chunki akkreditivlarning ushbu turida akkreditiv summasining bir qismi avans tariqasida oldindan to'lab beriladi. Xalqaro bank amaliyotida, odatda, avans summasi vakil bank hisobidan, akkreditivni ochgan bankning javobgarligi asosida to'lab beriladi. Agar benefisiar talab qilingan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etmasa va avans summasini qaytarmasa, unda vakil bank (vositachi bank) akkreditivni ochgan bankning vakillik hisobraqamini avans summasiga, foizlar va boshqa tariflar summasiga debetlaydi.

Ta'kidlash joizki, ko'pchilik hollarda kurslar o'rtasidagi farq ko'rinishida yuzaga keladigan zararlardan qochish maqsadida avans summasi milliy valyutada beriladi. Bunda valyuta kurslarining tebranishi muammosi yuzaga kelmaydi. Biroq avans xorijiy valyutada berilganda kurslar o'rtasidagi farq ko'rinishidagi zararlarning yuzaga kelish ehtimoli oshadi. Shuning uchun hujjatlashtirilgan akkreditiv shartlarida kurslar o'rtasidagi farq ko'rinishida yuzaga keladigan zararlarni kim qoplashi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5177-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3326421?ONDATE=09.07.2020>
3. Gloriov, A. G., Mixaylov, D. M. *Vneshnetorgovoye finansirovaniye i garantiynyy biznes*. – M.: Yurayt, 2011. – S. 207–208.
4. Sinki, Dj. *Finansovyy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovyykh uslug*. Per. s angl. – M.: Alpina Publisher, 2017. – S. 807.
5. Rozinskiy, I. A. *Inostrannyye banki i natsionalnaya ekonomika*. – M.: ZAO “Izdatelstvo “Ekonomika””, 2009. – 384 s. – S. 92.
6. Leshukova, I. V. Akkreditiv, ikh vidy, preimushchestva i nedostatki // *Innovatsionnaya nauka*. – 2018. – № 11. – S. 80–81.



7. Bobakulov, T. I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari: I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2008. – B. 22.
8. Axmedov, F. X. O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga ko'rsatadigan xizmatlarini takomillashtirish: I.f.b.f.d. avtoreferat. – Toshkent, 2017. – B. 21.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-sonli qarori. "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda 3229-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 13.04.2020-y., 10/20/3229/0455-son; 07.09.2020-y., 10/20/3229-1/1259-son.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100